

LITERARY-AESTHETIC CATEGORIES OF THE LITERARY TIME OF HISTORICAL NOVELS

Bahor Bahriddinovna TURAEVA

Doctor of Sciences in Philology, an Associate professor
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

TARIXIY ROMANLAR BADIY ZAMONINING ADABIY-ESTETIK KATEGORIYALARI

Bahor Bahriddinovna TO'RAYEVA

Dotsent, filologiya fanlari doktori
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВРЕМЕНИ ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНОВ

Бахор Бахриддиновна ТУРАЕВА

Доцент, доктор филологических наук
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан bahorturaeva@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

To'rayeva B.B. Tarixiy romanlar badiiy zamonining adabiy-estetik kategoriyalari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B.181-194.


<https://doi.org/10.36078/1733120663>

Received: September 14, 2024

Accepted: October 17, 2024

Published: October 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. In the article, it is analyzed that past time is the main time of historical chronos, creative transformation of this reality of historical time into the reality of artistic time, in the hierarchy of epic times of historical novels, and at the same time, in their integrated complex system, the form of artistic past time is compatible with real history. The artistic present is the core of the illusion of the epic times of historical novels: both the artistic past and the artistic future exist in the "bosom" of the artistic present. In the system of artistic time, the artistic future is relatively abstract, partially realistic, mostly symbolic-philosophical, the most important thing is the epic time, which is a complex mixture of different times. It is creatively integrated in the content of an "open" solution consisting of mixed tenses, concrete future or non-future and symbolic artistic future tenses. Historical time is the main category in the epic time system of historical novels. The fact that it "absorbs" all other categories of the time into its composition is a genre feature. Historical novels in the analysis are of three types from the point of view of their specific historical times: a) historical novels whose historical evidence does not depart from historical events ("Starry Nights", "Passage of Generations", "Treasure of Ulugbek"); b) historical novel ("The Old World"), which is given a wider place in relation to artistic texture and generalization; v) historical novels (all works in the analysis) consisting of an artistic texture of historical evidence. Genre-specific typology for all three types of historical novels is that historical chronos is almost the same as chronological time as the main category.

Keywords: historical time; artistic time; historical novel; plot; author's time; ideological-aesthetic intention of the writer.

Annotatsiya. Maqolada o'tgan zamon — tarixiy xronosning bosh zamon ekani, tarixiy zamonning ana shu realligini badiiy zamon realligiga ijodiy aylantirish, tarixiy romanlar epik zamonlari iyerarxiyasida, ayni paytda, ularning yaxlit murakkab tizimida *badiiy o'tgan zamon* shaklining real tarix bilan muvofiqligini ta'minlashi tahlil qilingan. *Badiiy hozirgi zamon* tarixiy romanlar epik zamonlari illyuziyasining tayanch nuqtasi, yadrosi sanaladi: badiiy o'tgan zamon ham, badiiy kelasi zamon ham badiiy hozirgi zamon "bag'ri"da mavjud. Badiiy zamon tizimida *badiiy kelasi zamonning* nisbatan mavhumligi, qisman realligi, aksar ramziy-falsafiyli, eng asosiysi — turli zamonlarning murakkab qorishmalaridan iborat epik zamonning vaqtdan tashqari timsolli azal-abad zamonligi tahlildagi tarixiy romanlar badiiy zamonlari barcha shakllarining epik kelasi zamonda mazmunan mavhumlik, ruhiy, qorishiq zamonli, aniq kelajakli yoxud kelajakdan tashqari va ramziy badiiy kelasi zamonlardan iborat "ochiq" yechim mundarijasida ijodiy yaxlitlashgan. Tarixiy romanlar epik zamon tizimida tarixiy zamon — bosh kategoriya. U o'z tarkibiga zamonning qolgan barcha kategoriyalarini "singdirib" yuborishi — janriy xususiyat. Tahlildagi tarixiy romanlar aniq tarixiy zamonlari nuqtayi nazaridan uch xil: a) tarixiy dalillaru tarixiy voqea-hodisalardan chekinilmagan tarixiy romanlar ("Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ulug'bek xazinasi"); b) badiiy to'qima va umumlashmaga nisbatan kengroq o'rin berilgan tarixiy roman ("Ko'hna dunyo"); v) tarixiy dalillarning badiiy to'qima uzviyligidan iborat tarixiy romanlar (tahlildagi barcha asarlar). Uchala xildagi tarixiy romanlar uchun janriy xos mushtaraklik — tipologiya shundaki, ularda tarixiy xronos bosh kategoriya maqomida xronologik zamon bilan deyarli bir xil bo'ladi.

Kalit so'zlar: tarixiy zamon; badiiy zamon; tarixiy roman; syujet; kompozitsiya; muallif zamon; yozuvchining g'oyaviy-estetik niyati.

Аннотация. В статье анализируется вопрос о том, что прошедшее время занимает центральное место в историческом хроносе, а также в процессе творческого преобразования реальности исторического времени в художественное. В иерархии эпических времен исторических романов форма художественного прошлого соотносится с реальной историей. Художественное настоящее считается исходной точкой, ядром иллюзий эпического времени исторических романов: и художественное прошлое, и художественное будущее существуют в «лоне» художественного настоящего. В системе художественного времени художественное будущее относительно абстрактно, частично реалистично, преимущественно символически-философское. Эпическое время, представляющее собой сложную смесь различных временных рамок, творчески интегрировано в содержание «открытого» решения. Это решение состоит из смешанных времен, конкретных будущих или небудущих, а также символических художественных будущих времен. В эпической временной системе исторических романов историческое время является основной категорией. Эта категория объединяет в себе все остальные временные периоды, что составляет их жанровую особенность. С этой точки зрения в статье исторические романы делятся на три типа: а) исторические романы, исторические свидетельства которых не оторваны от исторических событий («Звездные ночи», «Переход поколений», «Сокровища Улугбека»); б) исторический роман («Старый свет»), которому отведено более широкое место по отношению к художественной фактуре и обобщению; в) исторические романы (все произведения анализа), состоящие из художественной ткани

исторических свидетельств. Жанровая типология всех трех типов исторических романов заключается в том, что в них исторический хронос почти совпадает с хронологическим временем как основной категорией.

Ключевые слова: историческое время; художественное время; исторический роман; сюжет; композиция; авторское время; идейно-эстетический замысел писателя.

Kirish

Hech qachon zavolotni tan olmas tarix bilan yuzma-yuz bo'lish yozuvchidan yuksak mahorat talab qiladi. U o'tmish, bugun va erta bilan musohabaga kirishadi. Tarix qonuniyatlari faqat kechagi kun, hozirgi davr va kelajakka emas, balki yozuvchi e'tiqodi hamda iste'dodini ham o'z adolat tarozisiga solib turadi. Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda o'tmish tarixiy-ilmiy asarlardagiga nisbatan ham aniqroq, eng muhimi, adabiy ifodasini topishi siri, aslida, ana shu haqiqatda. Yan Parandovskiy ta'kidlashicha, *“Tarixiy mavzularda yozadigan yozuvchilar bag'oyat ajoyib bir qobiliyatga ega — ular o'zlari o'ylab chiqargan qahramonlarini ishonchli tarixiy shaxs sifatida jamiyat hayotiga olib kiradi va kitobxonlar mashhur tarixiy hodisalar muallifning xayolot olamidan kelib qolgan ana shu kelgindilar bilan bog'liq bo'lganiga astoydil ishonadilar. Ammo haqiqatan ham yashab o'tgan tarixiy shaxslar san'atkorning qalami bilan tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketadi va ba'zan kitobxonlarning tasavvurida shundayligicha saqlanib qoladi”* (9, 225). Tarixiy mavzuning, tarixiy zamonning badiiy tadqiqi va umumlashmasi muallifdan alohida adabiy jur'at, ijodiy jasorat talab qiladi. Zero, tarixiy romanlar tarixiy shaxslarni, ular orqali tarixiy zamonni, butun bir davrlarni badiiy ifoda etganicha, *o'zlari tarixga*, badiiyat tarixiga — merosga aylanishadi: roman zamon o'lchamlari moziyning muayyan zamonlar qamrovlari doiralaridan chiqib, mangulikning *“qo'nimsiz obrazi”*ga (Aflotun) singib ketishadi. Romanlar epik zamon poetikasida tarixiy zamonning tarixiy shaxslar zamonlari timsolida muallif zamoniga, o'tgan zamonning hozirgi zamonga aylanib ketgani, murakkab qorishmasi-sintezi shu adabiy hodisaning ijodiy estetik ko'rinishidir. Tarixiy romanlar epik zamon tizimida tarixiy zamonning *bosh kategoriyaligi*, o'z tarkibida badiiy zamonning boshqa kategoriyalarini *“singdirib”* yuborishi janriy xususiyatdir. *“Tarixiy poetika adabiy janrlarning shakllanish qonuniyatlarini, janr ichidagi badiiy komponentlar spetsifikasini sirkulyativ jarayon sifatida o'rganar ekan, ularga muayyan zamon va makon sathidan turib yondashadi”* (3, 260; 4, 28).

Tarixiy romanlar zamon va makon bo'yicha, qahramonlar hayoti obrazlari bo'yicha tarixiydir. Aynan ularda odamlar — tarixiy shaxslar, ular orqali zamon, tarix, davr belgi-alomatlari badiiy epiklashadi. Chunki tarixni yozuvchi xalqning mavjudlik qismati hamda o'zining qalbdan kechirgan shaxsiy taqdiri ham deb biladi. Tarix tuyg'usi o'laroq, o'zini, o'zi mansub millatni o'tmishdoshlariga qarab ko'rishga qodir ulkan san'atkor *aslida* ijodiy va ruhiy kamolida *butun insoniyat tarixini* kechinadi. Adabiy qahramonlar tasavvurida kechadigan, xotiralari obrazlarida yolg'inlanadigan tarix aslida muallif ongi-yu qalbida kechmish

xotiradir. Tarixiy romanning, avvalo, *badiiylashtirilgan tarix*, demak, tarixiy zamon — o'tgan zamonligi shundan. Lekin tarixiy zamonning o'tgan zamonligi mutlaqo shartli. Chunki tarix — mangu tirik, mangu uyg'oq abadiyat asli. Demak, tarixiy obrazlarning shohlik mahobati, podsholik qudrati, ulug'lik va donishlik, ayni paytda, taqdirning kechmish-iztiroblari, saboqlari bugungi va ertangi kun iftixori, havas-u faxrlarining falsafiy murakkab sintezi tarzida tug'ilgan. San'atkor adiblar — O. Yoqubov va P. Qodirov ijodiy tasavvurlarida qad rostlagan Ulug'bek, Bobur, Humoyun, Akbar, Beruniy va ibn Sinolar uzoq o'tgan zamonlarning qahramonlari, tojdorlari-yu mutafakkir allomalari barobarida bugungi hamda ertangi kunning ham komil shaxslaridir. Aynan shu xislatlari bilan ular barcha davr-u davronlar uchun ibrat bo'lib, har qanday zotni o'z ruhiy ta'sir qudratlari olamiga torta olishadi. Shu sababli tarixiy romanlarda bosh qahramonlar jismi-tani barobarida boy ruhiyati psixologik zamon maqomida badiiylashgan. Jumladan, "Ulug'bek xazinasi"da shoh va allomaning taassuf, nadomat, dard-u hasrat, alaloqibat, fojeaviy kunlarga olib kelgan sabab-oqibatlarining shafqatsiz tahlillari doimiy harakatdagi ruhiyatning og'riqli va alamli iqlimiga ko'chiriladi.

Asosiy qism

Ma'lumki, tabiiy zamon — qaytarilmas (demak, abadiy) zamon. Tarixiy zamon ham shunday qaytarilmas. Tarixiy romanlarda badiiy epiklashgan tarixiy dalillar, voqealar, ulug'vor shaxslar hayoti — murakkab umr yo'llari uzoq yoxud yaqin o'tmish xronologiyasida moziyning atigi bir parchagina bo'lakchasi bo'lsa-da, o'zlarida zamonlarning, tarix va tarixiy shuhratli qismlarning xronologik uzluksiz yaxlitligini epik tajassum etadi. Moziyning zamonda badiiy cheklangan ana shu tanlangan parchasi *romanning tarixiy zamoni* sanaladi. M. Qo'shjonov bu hodisani shunday baholaydi: "*Tarixni aks ettirishning ikki yo'li bor. Biri xronologik tarzda, tanlangan qahramon izidan borib tarixga nazar tashlash, ikkinchisi, tarixning umuman-zarrasini qamrab olib, tarixiy voqealar, bir qancha shaxslarning taqdirleri orqali tanlangan qahramon hayotiga, uning qilmish-qidirmishiga nazar tashlash*" (11, 216). Tarix tarixiy shaxs timsolida, ya'ni tarixiy zamon qahramon zamoni, aksincha, qahramon zamoni tarixiy zamon timsolida, bevosita asarning g'oyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiquvchi **muallif zamoni** o'laroq, **roman tarixiy xronosining** tarkiban bir butun yaxlit tizimini tashkil etadi. Tarixiy romanlarda aniq tarixiy zamon har xil bo'lib, tipologik shartli umumlashtirilgan muammolar kesimida ular quyidagicha tasniflandi:

a) tarixiy dalillar-u tarixiy voqea-hodisalardan chekinilmagan romanlar ("Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ulug'bek xazinasi");

b) badiiy to'qima va umumlashmaga nisbatan kengroq o'rin berilgan romanlar ("Ko'hna dunyo");

v) tarixiy dalillarning badiiy to'qima uzviyligidan iborat romanlar (aslida barcha romanlarga xos xususiyat). Lekin barchasi uchun janriy xos mushtaraklik shundaki, ularda tarixiy zamon asosiy bosh kategoriya maqomida xronologik zamon, ya'ni dalillar-u voqealar ketma-ketligi bilan deyarli bir xil kechadi. Bunday tipologiyaning klassik namunasi "Yulduzli

tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ko’hna dunyo” va “Ulug’bek xazinasi” romanlarida xronologik aniq teranlik kasb etgan.

Tarixiy romanlar epik olamiga ular qaysi zamonga daxldor ekanligini bilmasdan turib kirib bo’lmaydi. Asarlarning ichki botiniy zamonini bilish ularning yozilgan va chop qilingan zamonlarini bilish kabi muhimdir. Bu, eng avvalo, tarixiy epik asarlarga daxldor.

Bo’lak janrlarda badiiy zamon butunlay taqvimli bo’lmaydi, biroq uning aniq mavjudligi har qanday asarning zarur xususiyatligicha qoladi: badiiy olam — bu zamon hamda makonda yashovchi olamdor.

1. *Tarixiy dalillar-u voqea-hodisalardan chekinilmagan romanlar.* Tarixiy zamonni aniq taqvim bo’yicha badiiy o’zlashtirish aslida tahlildagi barcha tarixiy romanlar zamoni poetikasi uchun mushtarak. Lekin tarixiy zamonning taqvim bo’yicha ketma-ket bo’lingani “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ko’hna dunyo” romanlari epik zamonlari tizimi uchun ko’proq mos va xos. Ularda mualliflar haqiqiy zamon manzarasini borliqning chinakam asos-negizi sifatida tasavvur qilishga urinishadi: taqvim bo’yicha o’z asri — zamon voqealari bilan badiiy payvand aloqada o’lchanadi, matnda tig’iz zichlikda uzviy yaxlit badiiylashadi.

Ushbu romanlarda tarixiy aniq, kitobxon uchun esa noma’lum sanalarni aniqlashga to’g’ri keladi. Busiz yozuvchi tomonidan roman zamoniga aylantirilgan tarixiy zamonning badiiy epik turli xil qurilmalari xususida fikr yuritish mumkin emas. Tahlil obyekti hisoblangan tarixiy romanlarda musulmonlarning hijriy yil hisobiga asoslangan zamon o’lchovlari esa shaklan xilma-xil va murakkab.

Hijriy yil hisobining o’ziga xosligi tarixiy romanlar zamon o’lchamlari hamda qamrovlariga, shubhasiz, ta’sirini o’tkazadi. Tahlildagi romanlarda hijriy taqvim bilan Grigoriy kalendar o’rtasida taxminan 590-yildan 601-yilgacha farq bo’lib, musulmoncha o’lchov-u mezonlarning o’ziga xos hisob-kitob arifmetikasi bilan bog’liq (10, 154; 17). Bunday arifmetik yilnomaning tarixiy taqvimi sanasining ketma-ketlikdagi mutlaqo o’ziga xos uzluksizligi kabi uning so’z san’ati, xususan, tarixiy roman xronosidagi epik xronologiyasi ham, badiiy talqini singari, shubhasiz, o’ziga xos. Jumladan, “Ulug’bek xazinasi” romanida tarixiy zamon xronologik bevosita uzviylikda, asosan, 230 kunga yaqin, ya’ni yetti oydan sal ko’proq (romanning birinchi qismi — 8 kun, ikkinchi qismi — yetti oylar chamasi) qamrovga ega. “*Rajab oyining boshlarida a’lohazratlari* (Mirzo Ulug’bek) *lashkar tortib Jayhun tomon o’tlanishga majbur bo’ldi...*” (III, 4) ta’kidi tarixiy real fakt e’tirof qaydidan — taxminan 1450-yilning may oyi boshlari — boshlangan birinchi qism shahzoda Abdullatifning “*sha’bon oyida taxtga o’tirgani*” (III, 304) zahoti otasi Mirzo Ulug’bekning o’ldirilishini uyushtirgan zamon — 1449-yilning 27-oktyabri “*namozgar payti*” (III, 142) fojia zamon bilan tarixan xronologik aniqlikda badiiy qamrovlanadi.

Romanning ikkinchi qismi epik zamon ibtidosi aynan ana shu fojiali namozgarning xuftonga aylangani zamonidan, aniqrog’i “*xuftondan keyin...*” Salohiddin zargarning o’g’li — Mavlono Muhiddinga “*Suyukli ustoding... Muhammad Tarag’ay ibn Shohruh Mirzo Ulug’bek olamdan o’tibdi!*” (III, 144) xabaridan boshlanadi. Shu jihatdan roman qismlari ko’proq muallifning tarixiy epik fantaziyasiga asoslangan tarixiy zamon uzviyligi xronologik izchillikda qat’iy saqlanadi va shu xronologik

qat'iylikda roman tarixiy zamoni yechimigacha, ya'ni padarkush shahzodaning taxtga sha'bon oyida o'tirganiga yarim yil to'lgani (*"Uning taxtga o'tirganiga necha oy bo'ldi?... Sha'bon oyi edi. Bu kun rabbiul avval (1450 yilning may oyi)... olti oy... bo'lmish!.."* (III, 304) bilan bog'liq telba damlari-yu *"gunohkor farzandingizni kechirgaysiz, buzrukvor!"* (III, 313), deya jonholat izhorlari va nihoyat, al qasosul minalhaq zamoni — shahzodaning o'ldirilishi kunigacha (1450-yil 8-may) dramatik keskin kechimda davom etadi. Roman tarixiy xronologik zamonining yaxlit uzviyligi shu tariqa saqlanadi.

Ana shu tarzda shahzodaning tarixiy fojea zamoni paralelligida boshqa tarixiy (Ali Qushchi va uning shogirdlari) hamda to'qima obrazlar (Qalandar Qarnoqiy, usta Temur Samarqandiy va b) zamonlari ham xronologik uzviylilikda romanning qariyb 230 kundan iborat tarixiy yaxlit asosiy zamoniga yechim yasadi. Roman epik zamoni kompozitsion jihatdan shu qamrovda badiiy mantiqlashdi, ya'ni roman kompozitsiyasida tarixiy zamon *mantiqan badiiy nihoyalandi*. Biroq roman tarixiy zamonining taqvim xronologiyasi badiiy sun'iy lashtiriladi. Tarixiy aniq zamon xronologiyasida kompozitsiyaviy uzilish yuzaga keladi. Roman kompozitsiyasida birinchi va ikkinchi qismlarni bosh qahramon — Mirzo Ulug'bek emas, balki yozuvchining g'oyaviy-estetik niyati, ya'ni romanning bosh g'oyaviy konsepsiyasi birlashtirib turgan asarda tarixiy aniq zamonning badiiy-epik yaxlitlik xronologiyasi sun'iy lashtirilgani, shubhasiz, kompozitsiyaning umumyaxlit tizimiga ta'sir etgan. Ali Qushchining Samarqandni tark etishi (*"Sakkiz yuz yetmish ikkinchi hijriy yilning (milodiy 1470-yil) kuz kunlaridan biri"*)da (III, 329), roman ikkinchi bo'limining so'nggi 27 bobida Salohiddin Zargar oilasining dahshatli fojiasi, Qalandar Qarnoqiyning vafoti va dafni, Ali Qushchining Miram Chalabiy, Mansur Koshiy singari shogirdlari qismlari badiiy umumlashma yakunlari tizimida beriladi. Ali Qushchining haj bahona Vatanni abadga tark etishini romanning *"Xotima"* yoxud *"Muallifdan"* nomlari bilan atalgan maxsus epilogida axborot — ma'lumot mundarijasida badiiy qayd etsa ham mantiqli bo'lardi. *"Yulduzli tunlar"* va *"Avlodlar dovoni"* romanlarida P. Qodirov aynan ana shu kompozitsiya usulidan badiiy samarali foydalangan.

Tarixiy romanlar badiiy zamonining qiyosiy-tipologik tahlili

Tarixiy romanlar yaratilgan zamon	Tarixiy romanlarda tasvirlangan badiiy zamon	Tarixiy romanlarda yil, oy va kunning berilishi
"Ulug'bek xazinasi" romani 1970–1973	Milodiy 1449-yil Ulug'bek Mirzoning so'nggi yillari va 1470-yilda Ali Qushchining xazinani yashirishi voqealari Yigirma bir yillik zamon	Sakkiz yuz yetmish ikkinchi hijriy yilning kuz kunlaridan biri edi (III, 329) Ha, o'shanda ham mana shunday kun botayotay deb turgan edi Kech kuz bo'lsa ham, osmon beg'ubor, kun iliq edi (III, 331) Evoh! U zamonlarga salkam yigirma yil bo'libdi! Bu orada qancha suvlar oqib o'tdi (III, 331).

“Ko‘hna dunyo” romani 1983–1986	Milodiy 1012-yilda Abu Ali ibn Sinoning Sulton G‘aznaviy ta’qibidan qochib, Xorazmdan chiqib ketishi va 1032-yilda Beruniy bilan vidolashib, Isfahonga ketishi voqealari Yigirma yillik zamon	Bukun to‘rt yuz yigirma birinchi yil hijriy, rabbiul oxir oyining to‘rtinchi kuni bomdod chog‘ida Hamadondan chiqib, namozi asrda shahardan besh farsang joydagi bir rabot yoniga kelib qo‘ndik ((IV,160) Bukun to‘rt yuz sakson birinchi yil hijriy muharram oyining o‘n sakkizinchi kuni allomalar majlisiga ketgan shayx, namozi asr chog‘i, qo‘lida allaqanday maktub, qattiq hayajonda kirib keldi (IV, 373).
“Yulduzli tunlar” romani 1969–1999	Milodiy 1494-yildan 1530-yilga qadar, Bobur Mirzoning taxtga o‘tirishidan vafotiga qadar ro‘y bergan voqealar tasviri O‘ttiz olti yillik zamon	Milodiy 1494-yilning yozi Saraton issig‘ida Farg‘ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kun bo‘yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi (I, 5) Uch oydan beri muttasil ko‘tarilib borayotgan jazirama issiqlar hindcha ashora deb ataladigan to‘rtinchi oyga kelib juda avjiga chiqib ketdi (I, 407).
“Avlodlar dovoni” romani 1983–1993	Milodiy 1528-yilda Humoyunning taxtga chiqishi va 1605-yilda Akbarshohning vafotiga qadar ro‘y bergan voqealar Sakson yillik zamon	Hijriy 935-yilda Agraga ko‘chib kelgan Xonzoda begim o‘n yildan beri Hindistonda istiqomat qilayotgan bo‘lsa ham, hanuzgacha bu yerdagi yil fasllarining g‘aroyibligiga o‘rganolmay-di (II, 6) Akbar milodiy 1605-yilning kuzida bir oycha kasal bo‘lib yotdi (II, 668) Qishning chayon nomi bilan atalgan aqrab oyi allaqachon kirgan bo‘lsa ham, Sind o‘lkasi bahordagidek ko‘m-ko‘k (II, 122).

Kompozitsiyada zamon badiiy nihoyatda nozik va murakkabligi barobarida asarlarning janriy xususiyatigacha belgilovchi adabiy hodisalardan ekanligini P. Qodirovning romanlari tarixiy zamoni poetikasi isbotlaydi. Har bir roman tarixiy zamoni mustaqil. (“Yulduzli tunlar” (“Bobur”da 36 yil (1494–1530). “Humoyun va Akbar” (“Humoyun”da 26 yil (1530–1556). “Akbar”da 49 yil (1556–1605). Romanlarning jami tarixiy zamon qamrovi 111 yildan ortiqroq). Badiiy epik zamonga aylangan tarixiy uch buyuk avlod umri — zamon, avlodlar va ular sulolaviy vorisiyligining tarixiy aniq taqvimli epik xronikasi romanlarning mavzusi va g‘oyasi o‘zaro mushtarak ekanligidan (yozuvchining e’tiroficha, “Avlodlar dovoni” romani “Bobur” romanining davomi tarzida yozilib, unda (*“Boburning o‘g‘li Humoyun va nevarasi Akbarning tug‘ilganliklaridan to vafot etgunlarigacha boshdan kechirgan g‘aroyib sarguzashtlari va tarixda o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ faoliyatlari asar mundarijasini tashkil etadi”*)) (8, 4) kelib chiquvchi o‘z biografik qat’iy xronologiyasi bilan asarlarning dilogiya (aslida trilogiya) (16, 192)

shaklidagi janriy o'ziga xosligi va xususiyatlarini belgilagan asosiy adabiy-estetik hodisa bo'ldi. Romanlarni trilogiya shaklida janriy birlashtiruvchi tarixiy zamon o'z taqvim xronologiyasini Temuriylar sulolasining tanazzulidan oladi. "Yulduzli tunlar" romani ana shu muhaqqaq tanazzulning Movarounnahrda so'nggi talvasalari shafqatsizligi kechmishlaridan — yili, fasli, kuni, paytining maxsus aniq tarixiy qaydidan — *"milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona osmoniga chiqqan quyub bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi"* (I, 5), ramziy chuqur paralellizmga yo'g'rilgan moziy xronosidan boshlanadi). Buyuk Temur va avlodlari saltanatining halokatga mahkum zamoni shafqatsiz haqiqatlari bilan zamona zayliga aylanib, tarix sahnasidan yo'qlikka yuz tutgan bu fojeaviy davr Boburdek jasur temuriyzodani teran tafakkur dahosi barobarida xalosor shaxs-arbob maqomida kashf etdi. *"Iste'dod meros bo'lib o'tmaydi"* degan aqida noto'g'riligini yana bir bor isbotladi: Amir Temurning ulug' iste'dodi, jumladan, o'rtancha o'g'li Amiranshoh orqali *"chevarasi Mirzo Boburga yetkazib berilganligi tarix tomonidan tasdiq etilgan sulolaga xos... hayratomuz... irsiy daho... isboti"* (I, 604) — bobomeros saltanatni halokatdan qutqarib, unga yangi zaminda — Hindistonda qayta hayot baxsh etgan Mirzo Bobur taqdirida namoyon bo'ldi. Bunda *"tarixning ichki kuchlari, ma'naviy qudrati uyg'otiladi. Mirzo Boburning va avlodlarimizning o'lmas ruhlari qaytadan tiriltiriladi. Har birimiz ularning boshidan kechgan hodisa va fojialarni dildan his etamiz. Bunga biz Pirimqul Qodirovning o'zligi orqali, uning haqqoniy tasavvuri, ruhiyati, badiiy mahorati orqali erishamiz"* (12, 58). Ana shu tariqa tarix, davr-zamon zayli buyuk Boburshohni o'z yurtida bobomeros taxtdan shafqatsiz mosuvo qilganicha, Temuriylar sulolasining Movarounnahrda so'nggi mag'lub vakili, o'zga yurtlar – Afg'oniston va Hindistondagi g'olib vakili – Buyuk Boburiylar imperiyasi asoschisi maqomida jahonshumul dovuqda kashf qildi. Bobur kabi uning avlodlari ham har biri ayri-ayracha, barchasi mushtarak yaxlitlikda o'zlari tirik tarixga, abadiyatga aylanishdi (I, 604–605).

Dillogiya tarixiy yaxlit zamonining umumlashma falsafasi har bir romanning o'ziga xos mazmun-mundarijaga ega tarixiy zamonining o'ziga xosligini inkor etmaydi. Mavzu, g'oya deyarli o'xshash bo'lsa-da, romanlarni bosh qahramonlar va ular muhiti davr — zamoni barobarida otasi Axsida 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, 1494-yil iyun oyida o'n ikki yoshida taxtga o'tirgan Mirzo Bobur zamonining fojialarga serob drammatizmi, 1530-yil dekabr oyida taxtga o'tirib, 1539–1540-yillarda avval Chausa, keyin Qanovuj shaharlarida afg'onlarning suriylar sulolasidan Shershoh Suriyga yengilib, Eronga qochganicha, qariyb 16 yil (1555–yil 27-maygacha) turli o'lkalarda sarson kezgan Humoyun zamonining dramatikligi fojeaviy yakuni (1556), otasining kutilmagan o'limidan keyin 13 yoshida (1556-yil 15-fevral) taxtga o'tirgan (bobo va nevaraning o'xshash qismatlariga e'tibor berib) boburiylar saltanatining buyuk hukmdori Akbar zamonining ichki va tashqi islohotlar bilan bog'liq g'olib — muzaffarligi ajratib turadi. Tarixiy zamonlari xronologik uzviylikda mazmun va mohiyatlari bilan ajralib turgan romanlarni dillogiya shaklida yaxlit mundarijalab turgan yozuvchining ijodiy niyati, asarlarning g'oyaviy-estetik mushtarak konsepsiyalari ular epik yaxlit tarixiy

zamonining *dramatik shaklli tipologiyasini* belgilagan. Dilogiya tarixiy yaxlit zamonining o'ziga xos mohiyatlari, deganda, avvalo, romanlarning badiiy fantaziya dan ko'ra ko'proq "tarix fantaziyasi"ga asoslangan tarixiy-biografik hamda ilmiy-ma'rifiy, ilmiy-tarixiy *janrbopligini* nazarda tutaymiz. Professor U. Normatov haq! "Kitobxon, — deb yozadi olim, — goho ilmiy-tarixiy, aniq hujjatli asar o'qiyotirni yoki badiiy roman — uning xayolini real hayot haqiqati, chindan bo'lib o'tgan voqealar, aniq tarixiy shaxslar qismati band etadi. Barcha voqealarni tarixiy haqiqat sifatida qabul qiladi" (8, 10). Gap aslida tarixiy zamon haqida bormoqda. Buni ijod psixologiyasi haqiqatidan kelib chiqqan holda, P. Qodirovning o'zi ham tasdiqlaydi: "Asrlar kitobini o'qiganingiz sari, — deydi muallif, — tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojealar, syujetlarni alohida yozuvchining fantaziyasi bilan yaratib bo'lmashligiga ishonch hosil qilamiz. Shu sababli men Bobur, Humoyun va Akbarlarning ko'rgan-kechirganlarini tasvirlar ekanman, o'z fantaziyamdan ko'ra "tarix fantaziyasi"ga, ya'ni chindan sodir bo'lgan voqelarga ko'proq asoslandim" (8, 10). Aynan "tarix fantaziyasi" o'laroq, dialogiyada tarix tarixiy-ilmiy asarlardan aniqroq va to'g'riroq epik umumlashmasini topdi. "Tarix fantaziyasi", deganda yozuvchi tarixiy xronikaga asoslangan tarixiy xronologiya — zamonni nazarda tutmoqda, albatta. Darhaqiqat, xronologik aniq taqvimga asoslangan ikkala biografik roman ham (ayniqsa, "Yulduzli tunlar") tarixiy xronikaga o'xshab ketadi. Muallif asarda Boburdek ulkan, murakkab shaxsning shoh maqomida tarix sahnasiga chiqqan kundan o'limiga qadar 36 yillik (1494–1530) hayoti, siyosiy va maishiy muhiti, ijodkor-u olim maqomidagi boy ma'naviy-ruhiy dunyosi, shoh, sarkarda, fotih sifatidagi murakkab va og'ir ichki ziddiyatlari, mag'lublik va g'olibliklar ichra bobomeros buyuk saltanat davomchisi qismatini tasvirlaydi. "Avlodlar dovoni"da Humoyun, Akbar hayotining muhim pallalari, toj-taxt uchun olib borgan jang-u jadallari, ularning bunyodkorlik ishlari, ma'naviy izlanishlari, orzu-armonlarini yilma-yil, oyma-oy, kunma-kun, goho esa har bir daqiqasining ipidan ignasigacha butun tafsilotlari bilan beradi. Akbarning tug'ilishidan o'limiga qadar butun hayotini hikoya qiladi, adib qahramonlarning oilaviy, shaxsiy-intim hayotini, saroydagi mojarolarni, avlodlar ota va bobolar, aka-ukalar orasidagi mojarolarni ham esdan chiqarmaydi. Bu hodisani muallif shunday e'tirof etgan: "*Men talabalik yillarimdan beri, qirq yildirki, "Boburnoma"ni qo'ldan qo'ymayman. Boburning qadamjolarini borib ko'rishga intildim, Hindiston, Pokiston bo'ylab sayr qildim, shularning hammasidan xulosa shuki, hanuz bizga Boburni jozibali qilib ko'rsatayotgan tomoni uning olijanob insoniy fazilatlarini va noyob iste'dodidir*" (15, 20). Pirimqul Qodirov ijodiy yo'liga nazar tashlar ekansiz, uning yozuvchilik mahorati bilan birga tanqidchilik faoliyati tobora teranlashib borganligining guvohi bo'lasiz. "Tanqidchilik iqtidori imkoniyat tarzida bo'lsa ham, har bir yozuvchida, albatta, bor, — deb yozadi Pirimqul Qodirov, tanqidchi U. Normatov bilan qilgan bir suhbatida. — Lev Tolstoyning mashhur gapini yana bir eslagim keladi. "Men ishlayotganimda, yarmim yozuvchi bo'lib asar yozsa, yarmim tanqidchi bo'lib, bu asarning qanday chiqayotganligini aytib turadi. Kechasi ishlamayman, chunki tunda dilimdagi tanqidchi "uxlab qoladi".

Haqiqiy yozuvchi dilidagi tanqidchining hamisha uygʻoq boʻlishini istaydi” (6, 10).

Romanlar tarixiy zamoni dilogiyada tasvirlangan voqealarning xronologik aniq badiiy-tarixiy taqvim qamrovlari bilangina cheklanib qolmaydi. Yaʼni badiiy epik zamon tarixiy aniq xronologik taqvim qobigʻi chegaralarini tan olmay, muallif zamoni vositasida kelgusi zamonlar osha abadiyat tarixiga aylanib ketadi. Tarixiy zamonning abadiyatga aynan shu mohiyat mundarijasida daxldorligi tahlildagi boshqa romanlar epik xronosi poetikasi uchun ham mushtarak. “Ulugʻbek xazinasida”da turli shaklli anʼanaviy maxsus xotima yoʻq. Romanda xotima vazifasini asarning ikkinchi qismi soʻnggi 27-bobining oxirgi yulduzchalar bilan ajratilgan umumkompozitsiyaga “yopishmay” turgan parchasi, yaʼni Ali Qushchining haj bahona ona yurtini manguga tashlab ketayotgani sahnasi bajaradi.

2. *Badiiy toʻqima va umumlashmaga nisbatan kengroq oʻrin berilgan romanlar.* Tarixiy romanlar tarixiy xronika emas, aynan badiiy asarlar boʻlgani bois ular badiiy toʻqima va umumlashmaga asoslangan. Tarixiy zamon badiiy zamonga aylanganida ham mualliflar tasvirlanmish davr, voqea-hodisalar, shaxslar hamda qismatlar mansub davr — zamonga ijodiy mahkum, tarix taqvimini realligidan chetga baribir chiqib ketisha olishmaydi. Pirimqul Qodirov romanni yozish zamonida Bobur va uning avlodlari hayoti bilan yashadi va oʻsha davr voqealari tasvirlangan tarixiy asarlarni diqqat bilan oʻrgandi. Bu haqda muallif shunday deydi: “...Rassomlar qadimgi zamonlardan qolgan suyaklarga qarab ularning etini oʻzlaricha tasavvur qilib, haqiqatga toʻgʻri keladigan rasmlar chizadilar. Men ham asosan shu yoʻldan bordim. Asliga sodiqlik jihatidan romanda tarixiy hujjatlarning ahamiyati katta. Lekin tirik vujud quruq suyakdan koʻra et ogʻirroq boʻlishini bilasiz. Shunga oʻxshab, bu romanda ham dalildan koʻra tasavvur mahsulining salmogʻi ortiqroq, deb oʻylayman” (14, 216).

Tarix xronologiyasi muallifning ijodiy niyati oʻlaroq, badiiy toʻqima-yu umumlashma mundarijasidami yoxud boshqa adabiy-estetik holatidami, qatʼi nazar, tarixiy xronos izmiga “boʻysundiriladi”. Shu nuqtayi nazardan barcha romanlar tarixiy zamoni badiiy shartli tipologiyadir. Tadqiqotdagi romanlar orasida “Koʻhna dunyo” asarida muallif Beruniy va ibn Sino munosabatlarining oʻziga maʼlum tarixiy faktlar, shuningdek, voqea-hodisalar xronikalari xronologiyasiga taqvimiy aniq amal qilishga urinsa-da, tarix fantaziyasidan koʻra *badiiy fantaziyaga* — toʻqimaga koʻproq ijodiy suyangani sezilib turadi. Yozuvchini mantiqan tushunsa boʻladi: tasvirlanmish davr — moziy oʻta uzoq, mavhum, jumboq va sirli. Boz ustiga, tarixiy deb hisoblanmish aksar faktlar-u voqea-hodisalar aslida koʻproq rivoyatlar-u afsonalarga aylanib ketgan toʻqimalardir. Ehtimol, shu sabab yozuvchi roman tarixiy zamonini baʼzan mavhum, koʻproq fasllar va kunlarning shartli ramziy qaydlari vositalarida umumlashma obrazlari orqali, asosan, badiiy toʻqimada berishni oʻziga ep koʻradi. Yozuvchi oʻzi tasvirlayotgan voqea yoxud asoslanayotgan tarixni yaxshi bilgan hollarda tarixiy real zamonning yolgʻiz yilinigina emas, hatto kuni hamda oylarigacha aniq qaydini beradi. Jumladan, Beruniy va ibn Sino yozishmalari, tarixchi Juzjoniyning xotiralari vaqtlari va b. U. Normatov “Koʻhna dunyo saboqlari”

maqolasida Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani nashr etilgan kezlarda “Literaturnaya gazeta”ning yozgan javobini xotirlab shunday yozgan edi: “Yoqubovning romani markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davr turadi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlasmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo‘yilmagan. Odil Yoqubov tarixni ko‘rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlarga uzoq o‘tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berganday bo‘ladi” (III, 376). Yozuvchi Abu Ubayd al-Juzjoniylarida asosan tarixiy aniq zamonni berishga intiladi, Abu Shilqim ibn Shahvoniy bilan bog‘liq voqealarga esa badiiy to‘qima asosida yondashadi.

3. *Tarixiy dalillarning badiiy to‘qima bilan uzviyligidan iborat romanlar.* Tahlildagi romanlar tarixiy zamonida tarixiy dalillarga asoslanish ehtiyoji asarlarning janriy-epik xususiyatlari bilan bog‘liq. P. Qodirov tarixiy aniq ma‘lumotlar, dalillar inshosi borasida “Boburnoma” (5, 368), “Humoyunnoma”, “Akbarнома”, “Tarixi Rashidiy” (7, 720), “Gulbadan” (2, 176), “Bobur Hindistonda” (13, 112) kabi xronologik talqinli memuarlar barobarida Bobur, Humoyun va Akbar to‘g‘risidagi dunyoning turli makonlari va tillarida mavjud o‘nlab manbalarda, shuningdek, Boburning she‘riy va ilmiy merosidan ijodiy foydalangan.

Xuddi shunday fikr O. Yoqubovga ham taalluqli. Agar muallif “Ko‘hna dunyo” romanida shogird va ustoz tarixiy yozishmalaridan, ulardagi nazariy, ilmiy, falsafiy qarashlar, yondashuvlar, talqinlar va baholardan iborat tarixiy dalillarni tarixchi Juzjoniylarning aniq dalillarga asoslangan qoliplanuvchi kompozitsiyadagi xotiralar, sharhlar, dalillar hamda adabiy to‘qimalar zamon-makon vobastaligida ijodiy asos-manba qilib olgan. “Ulug‘bek xazinasi” romanini yozishda muallif Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois”, Boburning “Boburnoma”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” va G‘iyosiddin Koshiyning Samarqanddan Koshonga, otasiga yozgan maktubida keltirilgan ma‘lumotlarga (ayniqsa, rasadxona tasvirida) tayangan. Tarixchi Bo‘riboy Axmedov bir ilmiy anjumandagi voqeani afsus bilan shunday xotirlaydi: “Keyingi paytlarda Amir Temur va temuriylarga qiziquvchilar ko‘payib ketdi. Bugun Temur va uning avlodi haqida bilgan ham yozyapti, bilmagan ham. Shunaqalardan biri “Ulug‘bekning o‘limiga o‘zi aybdor, o‘g‘li Abdulatifda ayb yo‘q, — deb qoldi. Odil Yoqubov unga qattiq e‘tiroz bildirdi. Darhaqiqat, manbalarga tayanadigan bo‘lsak, “Majolisun nafois”ning yettinchi majlisida Abdulatif mirzo — savdoyi mijoz va vasvasiy tab’ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe‘lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o‘lturdi” (1, 7).

Tahlildagi tarixiy romanlarda tarixiy xronos badiiy estetikasi adabiy to‘qima bilan muallif ijodiy niyatiga ko‘ra uyg‘unlashtirilgan.

Xulosa

1. San‘atning turlarga bo‘linishida asos qilib olingan zamon falsafiy hamda adabiy-estetik hodisa maqomida badiiy voqelik ijodiy kashfining o‘zi, uning amaldagi mavjudlik shakli, obrazli aytganda, san‘at badiiyati,

badiiyat san'atidir. So'z san'atida turli xilda mujassamlashgan, harakatda bo'lgan va ijodiy-estetik o'zlashtirilgan zamon badiiy zamon tizimi bo'lmish badiiy modellashtirish vositasi, poetik to'qima hodisasi, adabiy olamning ajralmas atributi, badiiy voqelikning sodir bo'lishi shakli, adabiy obrazning muhim xarakteristikasi maqomlarida yaxlit adabiy-estetik kategoriyadir.

2. Badiiy zamon adabiy asarning g'oyaviy-estetik konsepsiyasidan kelib chiquvchi tarkiban murakkab va xilma-xil tizimlarning o'zaro yaxlit sistemasi bo'lib, badiiy zamon shakllari, tiplari, kategoriyalari hamda usullaridan iborat dialektik bir butun ijodiy-estetik hodisadir.

3. O.Yoqubov va P.Qodirovning tarixiy asarlarida falsafaning zamon kategoriyasini badiiy zamon falsafasiga, tarixiy zamon haqiqatini roman zamoni haqiqatiga aylantirishning real zamonni adabiy-epik zamon maqomida kashf etishning ijodiy-estetik "qonuniyatlari" mualliflarning uslubiy mahoratlari individualligida o'rganildi va ilmiy-tahliliy umumlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Б. ва бошқ. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. Рисола. — Тошкент: Ўқитувчи, 1996. — 285 б.
2. Годен Р. Гулбадан. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг кизи малика Гулбадан шахсига чизгилар. — Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007. — 176 б.
3. Жўракулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Монография. — Тошкент: Turon-iqbol, 2017. — 260 б.
4. Жўракулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси: Филол. фан. док. ...дисс., 2017. — 28 б.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. — Тошкент: Юлдузча, 1989. — 368 б.
6. Йўлдошев Б. Ёзувчининг адабий-танқидчилик бобидаги маҳорати хусусида //Филология масалалари, — 2018. — №1. — Б. 10.
7. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. — Тошкент: Sharq, 2010. — 720 б.
8. Норматов У. Тарих ҳақиқатига садоқат. Сўзбоши. Қодиров П. Ҳумоюн ва Акбар (Авлодлар довони): Тарихий роман. — Тошкент: Шарқ, 2018. — 4 б.
9. Парандовский Я. Сўз кимёси. /Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. (Озод Шарафиддинов таржималари). Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Шарафутдинова М., Тўйчиева Ш. — Тошкент: Маънавият, 2010. — 225 б.
10. Пирматова М. Ўзбек тақвим фольклори: Филол.фан.ном. ...дисс. — Т., 2008. — 154 б.
11. Содик С. Тарихий-полифоник роман. Ўзбек адабий танқиди:(антология)/ тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. — Т.: Turon-iqbol, 2011. — 216 б.
12. Умуров Ҳ., Носиров А. "Юлдузли тунлар" ва адабий танқид. Самарқанд, 2000. — 58 б.
13. Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. — Т.: Чўлпон, 1995. — 112 б.

14. Қодиров П. Изланиш қувончи ва ташвишлари //Шарқ юлдузи, — 1980. — №2. — Б. 216–224.
15. Қодиров П. Тил, тарих, муҳаббат// Ёшлик. — 1989. — № 5. — Б. 2–14.
16. Қўйлиева Г. Ўзбек насрида трилогия. Монография. — Тошкент: Tamaddun, 2016. — 192 б.
17. Ҳақимов М. Туркистон халқлари қўллаган тақвимлар. <http://www.e-tarix.uz/jahon-tarixi>.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar

- I. Qodirov P. Yulduzli tunlar. — T.: O'zbekiston nashriyoti, 1988. — 464 b.
- II. Qodirov P. Humoyun va Akbar (Avlodlar dovoni). Tarixiy roman. — T.: Sharq nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997. — 608 b.
- III. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. — 336 b.
- IV. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. Uch jildlik. Birinchi jild. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. — 512 b.

References

1. Axmedov P. *Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida* (In memory of Amir Temur and Ulugbek contemporaries), Tashkent: Uqituvchi, 1996, 7 p.
2. Goden R. *Gulbadan. Zahiriddin Muhammad Boburning qizi malika Gulbadan shaxsiga chizgilar* (Drawings on the person of Princess Gulbadan, the daughter of Zahiriddin Muhammad Babur), Tashkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007, 176 p.
3. Juraqulov U., *Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi* (Chronotope poetics in Alisher Navoi's *Khamsa*) Monografiya, Toshkent: Turon-iqbol, 2017, 260 p.
4. Juraqulov U., *Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi* (Chronotope poetics in Alisher Navoi's *Khamsa*), Doctor's thesis 2017, 28 p.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma* (Boburnama), Tashkent: Yulduzcha, 1989, 368 p.
6. Yuldoshev P., *Filologiya masalalari*, 2018, No.1, 10 p.
7. Muhammad Haydar Mirzo., *Tarixi Rashidiy* (The History of Rashidi), Tashkent: Sharq, 2010, 720 p.
8. Normatov U., *Tarix haqiqatiga sadoqat (Loyalty to the truth of history). Suzboshi. Qodirov P. Humoyun va Akbar (Avlodlar dovoni)* (Humayun and Akbar (Passage of Generations): Tarixiy roman, Toshkent: Sharq, 2018, 4 p.
9. Parandovskiy Y., *Suz kimyosi. Jahon adiblari adabiyot haqida* (Word chemistry. World writers about literature), Tashkent: Ma'naviyat, 2010, 225 p.
10. Pirmatova M., *Uzbek taqvim folklori (Uzbek Calendar Folklore)* candidate's thesis, T., 2008, 154 p.
11. Sodiq S., *Tarixiy-polifonik roman* (Historical-polyphonic novel), Tashkent: Turon-iqbol, 2011, 216 p.

12. Umurov H., Nosirov A., *Yulduzli tunlar va adabiy tanqid* ("Starry Nights" and literary criticism), Samarqand, 2000, 58 p.
13. Erskin U., *Bobur Hindistonda* (Babur in India), Tashkent: Chulpon, 1995, 112 p.
14. Qodirov P., *Sharq yulduzi*, 1980, No. 2, pp. 216–224.
15. Qodirov P., *Yoshlik*, 1989, No. 5, pp. 2–14.
16. Quyliyeva G., *Uzbek nasrida trilogiya* (Trilogy in Uzbek prose), Monografiya, Tashkent: Tamaddun, 2016, 192 p.
17. Hakimov M., *Turkiston xalqlari qo'llagan taqvimlar* (Calendars used by Turkestan peoples), available at: <http://www.e-tarix.uz/jahon-tarixi>

Used fiction

- I. Qodirov P., *Yulduzli tunlar* (Starry nights), Tashkent: O'zbekistan nashriyoti, 1988, 464 p.
- II. Qodirov P., *Humoyun va Akbar* (Humayun and Akbar), Historical Novel, Tashkent: Sharq nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririyati, 1997, 608 p.
- III. Yoqubov O., *Ulug'bek xazinasi* (Ulugbek treasure), Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 336 p.
- IV. Yoqubov O., *Ko'hna dunyo* (Old world), Vol 1., Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 512 p.